ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 1,3

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.03.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.03.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.03.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

MAMMADOVA SHAKAR,
XAMIDOV MANSUR
Ozarbayjon va o‘zbek tillaridagi somatik frazeologizmlarning qiyosiy-tipologik tahlili 7

YAKUBOVA NILUFAR EGAMBERGANOVNA
O‘zak va qolip (vazn) nazariyasi arabiy o‘zlashmalarni
tahlil qilishning asosiy mezoni sifatida 12

SAMANDAROV RUSTAM DO‘SYOROVICH
Tilshunoslik fani taraqqiyotida applikativ modelning murakkab
sintaktik qurilmalar shakllanishidagi o‘rni 17

ИШАНХАНОВА МУХЛИСАБОНУ ТУРГУНОВНА
Арабская лингвистическая традиция VII–XVII вв.: формирование
интеллектуального стиля и инструментов сохранения языковой нормы 21

ALIMOVA ZARIFAXON VAXOBOVNA
MAMAROZIQOVA SUG‘DIYONA SHUXRATJON QIZI
Jomiyning «Yusuf va Zulayho» dostonida forsiy o‘rin-joy yasovchi affikslarining qo‘llanilishi 25

TO‘YCHIYEVA ZULAYXO HAMROQO‘LOVNA,
YERJANOVA SAULE BAYMURZAYEVNA
Mahmud Koshg‘ariyning «Devony lug‘oti-t-turk» asarida keltirilgan
maqollardagi so‘zlarning semantik-stilistik xususiyatlari 29

SADULLAYEVA MATLYUBA AXROROVNA
Ahmad Yassaviy ijodining ramziy tili va undagi raqamli tasavvuf 33

SOTVOLDIYEV SIROJIDDIN MAXAMMADDIN O‘G‘LI
Arab tilida enantiosemiya hodisasi: semantik tabiati va ilmiy talqinlar tahlili 36

PANJIEVA NASIBA NARMAXMATOVNA
SAIBNAZAROVA NAZOKAT
English proverbs with number components 39

ЛАТИПОВ АЗИЗ АКБАРАЛИЕВИЧ
Сопоставительная характеристика категории
фазовости в английском и узбекском языкознании 42

AMONOV MUXTORJON UMAROVICH
«Boburnoma» asaridagi arabcha o‘zlashmalarda antonimlik 45

ОРИФЗОДА МАДИНА КАМИЛОВНА,
ОРИФЗОДА БОНУ КАМИЛОВНА
Системное изучение словообразовательной омонимии
в ретроспективном и перспективном аспектах 48

SABIROV ASROR ABDULLAYEVICH
Nemis–o‘zbek siyosiy terminlarining semantik va stilistik xususiyatlari 52

IBRAXIMOVA IRODA BOBIR QIZI
O‘zbekistonda til siyosati va ingliz tilining rivoji 56

TURSUNOVA MARXABO RAXMONOVNA
Jojo Moyesning «To seni topgunimcha» romanida kognitiv dissonans fenomenining
psixologik va lingvistik talqini hamda uning tarjimashunoslikdagi ifodasi 60

ARZIMURODOVA E’ZOZA BERDIMUROD QIZI
Zamonaviy mobil aloqa terminlarida transliteratsiya strategiyalari: ingliz va o‘zbek tillari qiyosida 64

BOZOROVA SEVARA KAMOL QIZI
Savdo konsepti doirasida sinonimiya (o‘zbek va ingliz tillari misolida) 68

КАРИМОВА ГУЗАЛ ИХТИЯРОВНА
Лингвокультурологический аспект концепта и его изучение в разных языках 71

MAXAMMATOVA FERUZA OLIMOVNA
O‘tkir Rahmat she’riyatida sinonim so‘zlarning qo‘llanishi haqida ayrim mulohazalar 76

МУНДАРИЖА

MUSTAFOEVA MAKSAD ASKAROVNA
The structural and linguistic analysis of anthroponyms in «Beowuf» and «Alpomish» folk epics 79

NOSIROVA DILNOZA RIZOKULOVNA
Semantic and pragmatic features of john green's novels in contemporary young adult literature 82

RAXIMOVA ZARINA UKTAMOVNA
O'smirlar psixologiyasining lingvopoetik ifodasi va tarjimada ichki monolog hamda emotsional tasvir 87

RAXMATOVA GULNOZA ISOXONOVNA
O'zbek tilidagi so'roq olmoshlari va so'roq yuklamalarining ingliz tilidagisi bilan qiyosi 90

BERDIYEVA SITORA UTKEROVNA
G'afur G'ulomning «Shum bola» asarida yumorning badiiy funksiyalarining lingvistik jihatlari 93

SHAMSITDINOVA MOXINABONU AKBAR QIZI
Yapon tilida omonimlardan foydalanishda nutqiy strategiyalar 98

ADABIYOTSHUNOSLIK

ШОФИЕВ ОБИДЖОН БАХТИЁРОВИЧ
Телба образининг бадиий талқини
(Эркин Аъзамнинг «Сув ёқалаб» ва «Танҳо қайиқ» киноқиссалари мисолида) 100

ASQAROVA ZULAYXO YANGIBOYEVNA
Muhammad Rizo Ogahiyning «Riyozu-d-davla» asaridagi ta'rixlarning badiiy-estetik qimmati 104

MAMADJONOVA SEVARA MAXAMADJON QIZI
Adabiyotshunoslikda dualizm tushunchasining nazariy va
metodologik asoslari (Agata Kristi poetikasi misolida) 109

RAHIMOVA SARVINOZ TOLIBOVNA
Usmon Azimning «Devorlari yiqilgan bog'» hamda «Yana sevgi haqida she'rlar»
asarlaridagi simulyakra va boshqa postmodern xususiyatlar ifodasi 112

СААКЯН РОЗА ЮРЬЕВНА
Поэтика полемического жанра в памфлетной публицистике
Даниэля Дефо и Жжонатана Свифта 115

SHAMSIYEVA SHOXISTAXON QUDRATULLAYEVNA
Gender rollarni aks ettiruvchi stereotiplar 119

НАСРИДИНОВА СИТОРА УТКИРОВНА
Мотив отсутствия и присутствия как средство создания
напряжения в рассказе Джека Ритчи «Отсутствие эмили» 125

BAFOYEVA ROXILA VALIJON QIZI
Amerika hamda o'zbek postmodern adabiyoti xususiyatlari 128

KHAKIMOVA NARGIZA KHAYRILLOYEVNA
Mythological origins of the epics "Arthuriana" and "Alpamysh" 131

TA'LIM

TILOVOVA GO'ZAL RUSTAMOVNA
Ta'lim jarayonida o'quv izohli lug'atlardan foydalanishning nazariy va amaliy ahamiyati 135

YULDASHEVA DILAFRUZ
The role of teacher instruction in efl classrooms: a discourse-oriented analysis
of their importance in teaching young learners 138

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 3
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

MUHAMMAD RIZO OGAHIYNING «RIYOZU-D-DAVLA» ASARIDAGI TA'RIXLARNING BADIIY-ESTETIK QIMMATI

Asqarova Zulayxo Yangiboyevna,
Urganch davlat pedagogika instituti
o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsent v.b.

O'zbek mumtoz tarixnavisligi va adabiyotida ta'rix (xronogramma) janri o'zining murakkab sinkretik tabiati bilan ajralib turadi. Bir qarashda u muayyan tarixiy voqea sanasini abjad hisobi orqali she'riy misraga yashiruvchi boshqotirma bo'lib tuyulsa-da, aslida, u Sharq istoriosofiyasining (tarix falsafasining) eng teran mafkuraviy va badiiy-estetik kodlarini o'zida mujassam etgan hodisadir. Muhammad Rizo Ogahiyning «Riyozu-d-davla» asaridagi ta'rixlarni o'rganish faqatgina tarixiy sanalarni aniqlash emas, balki muarrixning davr, jamiyat, hukmdor va inson umrining mohiyati haqidagi konseptual qarashlarini ochib berishni taqozo etadi.

Atoqli shoir va mutafakkir Matnazar Abdulhakim Ogahiy ta'rixlarining botiniy mohiyatini kashf etar ekan, ularni «ham nasihat, ham vasiyat» sifatida baholaydi. Ushbu ta'rif Ogahiy ta'rixlarini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etishda muhim metodologik kalit vazifasini o'taydi. Zero, Ogahiy yaratgan ta'rixlar zamirida shunchaki quruq axborot emas, balki kelajak avlodlarga va taxt egalariga qaratilgan buyuk murabbiyning didaktik chorlovi mujassamdir.

Ta'rix janrining ijtimoiy-siyosiy konteksti: Madhiya niqobi ostidagi didaktika adabiyotshunoslikda ta'rix janri tabiatiga ko'ra ko'pincha qasida va madhiyaga yaqinlashtiriladi. Chunki ular asosan saroy a'yonlari, hukmdorlarning taxtga o'tirishi yoki muhtasham binolar qurilishi munosabati bilan rasmiy buyurtma asosida yozilgan. Lekin Ogahiy kabi buyuk mutafakkirlar ijodida bu janr sof maddohlik yoki xushomadgo'ylik vositasi bo'lib qolmagan.

M.Abdulhakim haqli ravishda ta'kidlaganidek, Ogahiy ushbu ta'rixlarni ijod etayotgan davrda Xorazm mutlaq monarxiya va qat'iy senzura hukm surgan, hatto bozorlarida qullar sotiladigan murakkab ijtimoiy tuzumli mamlakat edi. Bunday sharoitda muarrixning ta'rixlardagi dabdabali va ko'tarinki (panegirik) ohanglari muallifning jur'atsizligini emas, balki an'ana qudratini va badiiy diplomatiyani ko'rsatadi. Mumtoz an'anaga ko'ra, rasmiy she'riyatda muammolar ochiq aytilmagan, aksincha, ideal fazilatlar tarannum qilingan. Ogahiy o'z ta'rixlarida voqelikning «qanday ekanligini» emas, balki «qanday bo'lishi kerakligini» (idealni) tasvirlash orqali o'ziga xos yashirin didaktika yaratadi[1].

Bundan tashqari, Abdullaxon yoki Sayyid Muhammadxonning taxtga chiqishiga bag'ishlangan ta'rixlarda ham muallif faqat hukmdorning tashqi qudratini emas, ichki ruhiyatini taftish qiladi: *«Zohirda shahanshoh, botinda bo'lsa, Faqiyru, maqbuli xoliqi olam. Shariat do'sti va bid'at dushmani, Saxovat manbai, sohibi karam»*[2]. Ko'rinadiki, taxt egasidan talab qilinadigan asosiy fazilat – dinni niqob qilib davron surish emas, balki «zohirda shahanshoh, botinda faqir» bo'lishdir. Mutaassiblik va bid'atga qarshi kurash orqali shoh ezgulik murabbiysiga aylanishi lozimligi Ogahiy ta'rixlarining bosh g'oyasini tashkil qiladi.

Qozilar vafotiga bitilgan ta'rixlar Ogahiy ta'rixlari qaysi mavzuga bag'ishlanmasin, ularning bosh qahramoni – Inson va Hazrati Vaqtdir. Bu xususiyat, ayniqsa, davlat arboblari va ulamolar (qozilar) vafotiga bitilgan ta'rixlarda (nekrologlarda) teran ekzistensial ruh kasb etadi.

Sharq istoriosofiyasida saltanatning barqarorligi ikki ustunga – adolat va ma'rifatga tayanadi. Ogahiy hazratlarining ta'rixlarida bu ikki tushunchaning uyg'unligi me'moriy obidalar (madrasa va minoralar) qurilishi tasvirida yorqin ko'zga tashlanadi. Ma'rifatli inson – shunchaki xat-savodli shaxs emas, balki Haqni tanigan va o'z ilmiga amal qiluvchi yetuk siymodir.

Ogahiy madrasalar qurilishi haqida yozganda qalamida alohida bir jo'shqinlik va ko'tarinkilik (pafos) seziladi. Masalan, Muhammad Aminxon madrasasiga bag'ishlab 4 ta, minorasiga 2 ta ta'rix bitganining o'zi muarrixning ma'rifatga bo'lgan e'tiqodini ko'rsa-

[1] Матназар Абдулҳаким. Ҳам насиҳат, ҳам васият // Танланган асарлар. – Тошкент, 2023. – Б. 507-511.

[2] Муҳаммад Ризо Огаҳий. Риёзу-д-давла. // Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти қўлёзмалар фонди, № 5364, II.Муҳаммад Ризо Огаҳий. Риёзу-д-давла. // Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти қўлёзмалар фонди, № 5364, II.

tadi. Shoirning fikricha, madrasa qurilishi faqatgina tolibi ilmlar uchun boshpana yaratish emas, balki butun millatni tarbiyalash, Vatanni kamol toptirish yo‘lidagi eng buyuk amaldir. Ogahiy madrasa binosini *«Jannatni ham orzu qilmasdan qo‘yar, Kimki bir hujrasin aylasa ma’vo»* yoki *«Hujralari qasri xuldi barindur»*[1] deb ta’riflar ekan, bu muhtasham binoda tahsil oluvchi yoshlarning ilmi va ruhiyati ham binoning poydevoridek mustahkam va ulug‘vor bo‘lishini orzu qiladi (umid badiiyati).

Ogahiy ta’rixlarining eng nozik gumanistik (insonparvarlik) qirrasi shundaki, muarrix insoniy qayg‘u va motamni ham el-yurt farovonligiga xizmat qildirish g‘oyasini ilgari suradi. Jumladan, «Muso To‘ra madrasasi ta’rixi» buning yorqin dalilidir. Boshqa madrasalar hukmdorlarning tirikligida o‘zlari tomonidan qurilgan bo‘lsa, bu madrasa Muso to‘raning vafotidan so‘ng, onasi tomonidan marhum farzandi xotirasiga bunyod etilgan. Ogahiy bu voqeani tarixga muhrlar ekan, farzand dog‘idek og‘ir musibatni faqatgina ko‘z yosh to‘kish bilan emas, balki ilm maskani qurish orqali mangulikka aylantirishni kelajak avlodlarga vasiyat qiladi. Bu – jaholat va o‘lim ustidan ma’rifat va hayotning g‘alabasi konsepsiyasidir.

Adabiyotshunoslikda ta’rix (xronogramma) – bu matematik shaklga solingan vaqtdir. Ammo Ogahiy merosida ushbu janr vaqtni hisoblash vositasidan vaqtni to‘xtatib qolish (abadiylashtirish) vositasiga aylangan. M.Abdulhakim juda to‘g‘ri ta’kidlaganidek, bizgacha yetib kelgan Ogahiy ta’rixlarining bosh qahramoni – Hazrati Vaqtdir. Xiva tarixidagi yuzlab kunlar ichida aynan Ogahiy o‘z ta’rixlarida muhrlagan kunlargina mangulikka daxldor bo‘lib qoldi. Baxtli voqea o‘z-o‘zidan baxtli emas, balki u buyuk mutafakkirning qalamiga tushgani uchun, so‘z orqali toshga o‘yilgani uchun baxtlidir. Zabardast shoir E.Vohidov: *«Tarixing bitmakka, xalqim, mingta Firdavsiy kerak»* deganda, shubhasiz, tarixiy lahzalarni badiiy so‘z orqali millatning ma’naviy mulkiga aylantirgan Ogahiydek bobolarimizni ham nazarda tutgan.

Muhammad Rizo Ogahiy ta’rixlari zohiran sanalarni abjad hisobida qayd etuvchi she’riy janr bo‘lsa-da, botinan zamondoshlarini va kelajak avlodni adolatga, ma’rifatparvarlikka va vatanparvarlikka undovchi falsafiy manifestdir. Ularda marhumlarning fazilatlarini tarannum etish (marsiya), hukmdorlar va ulamolar faoliyatiga baho berish va obidalarning mahobatini so‘zda chizish orqali yaxlit bir badiiy-tarixiy ko‘zgu yaratilgan.

Muhammad Rizo Ogahiyning tarixiy asarlari, xususan, «Riyozu-d-davla»ning janriy tabiati shundayki, unda nasriy bayon she’riy parchalar bilan, aniq xronologiya esa badiiy ta’rix (xronogramma) san’ati bilan uzviy uyg‘unlashgan. Ogahiy yaratgan ta’rixlar faqat qo‘lyozma sahifalarida qolib ketmagan, balki Xiva xonligining muhtasham me’moriy obidalariga (Toshhovli, Muhammad Aminxon madrasasi va minorasi, Ko‘hna Ark) bitilib, toshga muhrlangan «toshbitiklar» (epigrafika) ga aylangan.

Ushbu yo‘nalishda K.Xudoyberganov, A.Ahmedov, I.Ismoilovlarning xizmatlari kattadir. Xususan, I.Ismoilovning Ogahiy qalamiga mansub forsiy ta’rixlar tahliliga bag‘ishlangan turkum maqolalarida[2] shoirning ta’rixnavislik mahorati va abjad hisobini qo‘llash usullari atroflicha yoritilgan.

Mazkur tadqiqotlarga tayangan holda, «Riyozu-d-davla» va unga aloqador obidalardagi ta’rixlarning adabiy qiymatini quyidagi ilmiy mezonlar asosida tahlil qilamiz.

I.Ismoilov va K.Xudoyberganovlarning ta’kidlashicha, Ogahiyning ta’rixgo‘ylik mahorati yoshlik davridanoq namoyon bo‘lgan. Buni Olloqulixon (1825–1842) davrida qurilgan Toshhovli saroyidagi bitiklar tasdiqlaydi. Saroy mehmonxonasi shiftiga nasta’liq xatida bitilgan fors tilidagi ta’rix shoirning endigina 22 yoshda (1831-yil) ekanida yozilgan.

Ta’rixning yakunlovchi bayti quyidagicha:

Bahri ta’rixi hamin hovli Ogohiy az xirad,
Mustami’ gardid «zarrin xonahoyi podshoh.

(Mazmuni: Bu hovlining tarixini Ogahiy aql-idrokdan so‘raganida, qulog‘iga «Podshohning zarhal xonalari» degan sado eshitildi).

Demak, «moddai ta’rix» – «Zarrin xonahoyi podshoh» (ه ا ش د ا ا ن ه ا ی ن خ ی ر). Abjad hisobi: 5+1+300+4+1+2+10+1+5+50+1+600+50+10+200+7 = 1247-hijriy (1831-melodiy)[3]. Ogahiy bu o‘rinda binoning tashqi ko‘rinishiga mos «zarrin» (oltin, zarhal) sifatlashini tanlagan. I.Ismoilov ta’kidlagan «ta’rix» xususiyatlariga ko‘ra, bu o‘rinda shoir so‘zlarning nafaqat matematik qiymatini, balki semantik (ma’noviy) mosligini ham hisobga olgan. Ogahiy ta’rixlarida koinot tuzilishi haqidagi qadimiy tasavvurlardan (mifologiyadan) ustalik bilan foydalangan. Toshhovliga bag‘ishlangan qasidasida shunday misra mavjud: «Raft nomi shavkati on shah zi mohi to Samoh». A.Ahmedov ushbu misrani chuqur tahlil qilib, undagi «mohi» (baliq) va «samoh» (osmon/yulduz) so‘zlari orqali qadimiy kosmogonik afsonaga ishora qilin-

[1] E.Vohidov, O‘zbegim// – Toshkent: Nurafshon business, 2021. – B. 42.

[2] I.Ismoilovning mavzuga doir tadqiqotlari uchun qarang: Исмоилов И. Бир форсий таърих ҳакида // Филологическое исследование. XVII том. – Урганч, 2008. – Б. 21-23; Исмоилов И. Огаҳий таърихлари // Огаҳийга армуғон (маҳолалар тўплами). – Урганч, 2009. – Б. 165-169; Исмоилов И. Огаҳий таърихлари ҳакида // Тафаккур зиёси. XXIII том. – Урганч, 2010. – Б. 12-15.

[3] Худойберганов К., Аҳмедов А. Огаҳийнинг Хива обидаларидаги шеърий таърихлари // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. – 2013. – № 4. – Б. 39.

ganini ta’kidlaydi: «Ogahiy va undan oldingi davrlarda olamni va koinot tuzilishining cheki yo‘q ummonda suzib yurgan katta nahang baliq ustidagi ho‘kiz shoxlari ustida yerni ko‘tarib yuribdi... deb tasavvur qilishgan»[1]. Demak, shoir «Yer ostidagi baliqdan to osmongacha» deyish orqali, xonning shon-shuhrati butun borliqni qamrab olganini mubolag‘ayi g‘uluv san’ati vositasida ifodalagan.

Muhammad Aminxon madrasasi (1851-1855) peshtoqiga bitilgan ta’rix Ogahiyning yetuklik davri mahsulidir. Bunda shoir binoning arxitekturaviy elementlarini (toq, ravoq, hujra) inson go‘zalligiga qiyoslaydi: «Toqhoyash chu abrue xo‘bon, dilkashu dilkusho ast sartopo» – «Toqlari go‘zallarning qoshi kabi, boshdan oyoq ko‘ngillarni ochib xursand qiladi». Madrasa ravoqlarining yoysimon shakli – go‘zallarning qoshiga (abru) o‘xshatilishi nafaqat vizual moslik, balki binoga «jonlilik» bag‘ishlovchi estetik usuldir. Bunda ta’rix moddasi – «Xayri behamto» (Tengsiz yaxshilik). Abjad hisobi: 1+400+40+5+10+2+200+10+600 = 1268- hijriy (1852-melodiy). Ogahiy bu o‘rinda binoni «chiroyli bino» deb emas, balki uning ijtimoiy vazifasidan kelib chiqib *xayr* (yaxshilik, ezgulik) deb atamoqda.

Sharq mumtoz adabiyoti va tarixnavisligida muhim voqealar sanasini she’riy misralar yoki so‘z birikmalari tarkibidagi harflarning raqam qiymati (abjad hisobi) orqali ifodalash – *ta’rix* janri alohida o‘rin tutadi. A.Juvonmardiyev ta’kidlaganidek, ta’rixnavislik O‘rta Osiyo xalqlari madaniy merosida katta mavqega ega bo‘lgan, o‘ziga xos an’analari bilan asrlar davomida sayqallanib kelgan sohalardan biridir»[2]. Ogahiyning «Riyozu-d-davla» asarida bu janr nafaqat sanani qayd etish, balki tarixiy voqeaga badiiy-estetik va siyosiy baho berish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Ogahiy mazkur asarda ko‘plab tarixiy sanalarni o‘z ustozi Munis qalamiga mansub ta’rixlar orqali beradi. Bu holat Ogahiyning ustoziga bo‘lgan yuksak ehtiromi va uning mahoratini e’tirof etishidan dalolatdir. Asarda Muhammad Rahimxonning vafoti va Allohqulixonning taxtga o‘tirishi (julusi) munosabati bilan Munis tomonidan bitilgan ta’rix bunga yorqin misol bo‘la oladi. Ogahiy yozadi: «...ustodi kiromiy mavlonoyi volomaqomiyi balog‘atmaob Munis mirobi mag‘furiy... bu bobda ikki ta’rix tahrir qilibdur. Biri hazrati sultoni mag‘fur va xoqoni mabrurning vafoti va hazrati a’lo xoqoniyning julusi maymanatoyotig‘a mushtamaldur» (RD, 252b). Keltirilgan ta’rixning moddasi (yakuni) quyidagicha: «Ku mah biraftu mehr baromada ba avji joh» (RD, 253a). (Tarjimasi: Oy ketdi-yu, martaba avjiga Quyosh chiqdi). Ushbu misrada «moh» (oy) – vafot etgan Muhammad Rahimxonning, «mehr» (quyosh) esa taxtga yangi o‘tirgan Allohqulixonning badiiy timsolidir. Bu yerda istiora va tazod san’atlari orqali siyosiy almashinuv jarayoni tabiat hodisasi (quyosh va oy almashinuvi) qiyosida yuksak badiiylik bilan ifodalangan. Abjad hisobida ushbu misra hijriy 1241- (milodiy 1825) yilni beradi.

Ogahiy asarda siyosiy raqiblar va isyonchilarning taqdiriga bag‘ishlangan ta’rixlarni ham keltiradi. Bunday ta’rixlar shunchaki sana emas, balki tarixiy hukm va siyosiy baho vazifasini o‘tagan. Masalan, xonlikka qarshi isyon ko‘targan Oydo‘stbiyning qatl etilishi voqeasiga bag‘ishlangan ta’rixda shunday deyiladi: «Jazo yoft Oydo‘st bo ahli isyon» (RD, 285b). (Tarjimasi: Oydo‘st isyon ahli bilan birga jazosini topdi). Bu misradagi harflar yig‘indisi voqea sodir bo‘lgan hijriy 1243-(milodiy 1827-) yilni ko‘rsatadi. E’tiborli jihati shundaki, ta’rix moddasining o‘zidayoq isyonchining qismati («jazo topdi») siyosiy nuqtayi nazardan qoralangan.

Xuddi shuningdek, shohzoda Rahmonquli to‘raning g‘alabali yurishlariga nisbatan *g‘azvi akbar* – (RD, 264a) *buyuk g‘azot* birikmasi ta’rix sifatida keltirilgan bo‘lib, bu ham hijriy 1241-yilni anglatadi va harbiy yurishga diniy-g‘oyaviy tus berilganini ko‘rsatadi.

Asarda Shohniyoz otaliqning vafotiga bag‘ishlangan «*Raftiy bari firdavs»* (RD, 264a) *(tarjimasi: jannat huzuriga ketding)* ta’rixi esa marhumga nisbatan hurmat va ehtiromni ifodalash bilan birga, uning vafot yilini (hijriy 1241) ham muhrlagan.

Ogahiyning «Riyozu-d-davla» asari Xiva tarixnavislik maktabida keyingi avlod muarrix va tazkiranavislari uchun asos manba vazifasini o‘tagan. Xususan, XX asr boshlarida yaratilgan Hasanmurod Laffasiyning «Tazkirayi shuaro» va tarixiy asarlarida RD ma’lumotlaridan keng foydalanilgani S.Do‘stovaning tadqiqotlarida o‘z isbotini topgan[3]. Bu jarayonda Ogahiy matnining to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirilishi emas, balki ijodiy qayta ishlash (transformatsiya) va yangi ma’lumotlar bilan boyitish hodisasi kuzatiladi.

Laffasiy o‘z tazkiralarida (xususan, 12561-raqamli qo‘lyozmada) Munis va Ogahiy hayotiga oid ma’lumotlarni aynan «Riyozu-d-davla» va «Firdavs ul-iqbol»dan olganligini ko‘rsatuvchi tekstologik dalillar mavjud. S.Do‘stova aniqlashicha, Laffasiy 12561-raqamli qo‘lyozmasida Munisning vafoti tafsilotlarini keltirar ekan, Ogahiyning RD asaridagi bayon uslubiga tayanadi, lekin uni yangi detallar bilan to‘ldiradi. Ogahiyda: Munisning vafoti sanasi va Ol-

[1] Худойберганов К., Аҳмедов А. Огаҳийнинг Хива обидаларидаги шеърий таърихлари // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. – 2013. – № 4. – Б. 41.

[2] Жувонмардиев А. Ҳарф ва рақам. – Тошкент: Фан, 1971. – Б. 4.

[3] Дўстова С. Ҳасанмурод Лаффасийнинг “Тазкираи шуаро” асари ва унинг қиёсий-матний тадқиқи: Филол. фан. фалсафа доктори (PhD) дисс. – Жиззах, 2021. – Б. 17.

loqulixon bilan safari qisqa qayd etilgan. Laffasiyda (RD asosida): «...Munis dog‘i miroblig‘ mansabida xizmatlar qilib, dog‘i «Ravzat us-safo» ta’rixining tarjimasig‘a mashg‘ullig‘ etib turadur...»[1]. Bu o‘rinda Laffasiy Ogahiy matnini kengaytirib, Munisning so‘nggi kunlari, xususan, «is’hol» xastaligiga chalingani va tabiblarning muolajasi kor qilmagani haqidagi dramatik lavhalarni qo‘shadi. Bu RDning «quruq xronika» emas, balki biografik ma’lumotlar bazasi sifatida xizmat qilganini ko‘rsatadi.

Xiva tarixnavislik maktabida ustoz va shogird an’analarining barqarorligi nafaqat uslubiy jihatdan, balki tarixiy faktlarni badiiylashtirish jarayonida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Buning yorqin misoli sifatida Shermuhammad Munisning vafoti (1829-yil) va unga bag‘ishlangan xronogramma (ta’rix)ning Ogahiy hamda Laffasiy asarlarida aks etishini keltirish mumkin.

Manbashunoslik nuqtayi nazaridan, Ogahiyning «Riyozu-d-davla» asari ushbu voqeani qayd etgan birlamchi manba (protograf) hisoblansa, Hasanmurod Laffasiyning «Tazkirayi shuaro»si (12561-inv. raqamli qo‘lyozma) unga tayangan holda yaratilgan ikkilamchi manba vazifasini o‘taydi.

Ogahiy o‘z asarida ustozi va amakisi Munisning Xuroson safari chog‘ida vabo kasalligidan vafot etganini chuqur iztirob va yuksak ehtirom bilan bayon etadi. Muarrix Munisga nisbatan «O‘zbakiya xonadonining zubdasi», «yuz dudmonining umdasi» kabi yuksak sifatlashlarni qo‘llaydi va Hubbiquli Xo‘ja Dilovar tomonidan bitilgan mashhur ta’rixni keltiradi: «Bek Munis guzasht dar g‘urbat, Gasht ta’rixi favt «Beki g‘arib» (RD, 315a). (Mazmuni: Bek Munis g‘urbatda vafot etdi, vafoti tarixi «Beki g‘arib» (G‘arib bek) bo‘ldi).

Tadqiqotchi S.Do‘stovaning aniqlashicha, Laffasiy o‘zining 12561-raqamli qo‘lyozmasida ushbu voqeani yoritishda bevosita Ogahiy matniga tayangan. Ushbu ta’rixning ilmiy qimmati shundaki, Dilovariy «Beki g‘arib» بیغرب کیب birikmasi orqali ham Munisning ijtimoiy maqomini (*bek*), ham uning vafot etgan o‘rnini (*g‘arib* – g‘ariblikda, vatandan uzoqda), ham vafot sanasini (1244-hijriy) ifodalashga erishgan. Bu sana tarixiy manbalardagi Munisning vafot yiliga to‘liq mos keladi.

Ogahiyning «Riyozu-d-davla» asaridagi xronogrammalar (ta’rixlar) tizimida Munis qalamiga mansub turkiy masnaviy alohida mavqega ega. Ushbu she’riy parcha shunchaki sanani qayd etish vositasi emas, balki «fathnoma» (g‘alaba kitobi) janrining kichik namunasi bo‘lib, unda qahramonlik eposiga xos badiiy unsurlar va tarixiy hujjatlilik uyg‘unlashgan.

She’r shaklan masnaviy (har bayti mustaqil qofiyalangan – *aa, bb, cc...*) bo‘lsa-da, mazmunan qasida talablariga javob beradi. U quyidagi kompozitsion qismlardan iborat:

Tashbib (kirish) – qahramon (Rahmonquli to‘ra) ning madhi va ta’rifi.

Asosiy qism – jang lavhalari, dushman (qizilboshlar)ning mag‘lubiyati va g‘animatlar tasviri.

Duo va ta’rix (yakun) – hukmdor haqqiga duo va voqea sanasini anglatuvchi moddai ta’rix.

Munis ushbu asarda mumtoz poetikaning an’anaviy vositalaridan mahorat bilan foydalanib, tarixiy shaxsning ideallashgan portretini yaratadi:

Dilovarliqda qul ollida Rustam,
Bahodirliqdadur Bahrom chokar.

Shoir shahzodaning kuchini tasvirlashda Sharq adabiyotining afsonaviy qahramonlari – Rustam (Firdavsiyning «Shohnoma»sidan) va Bahrom (Go‘r)ga ishora qiladi. Bu o‘rinda mubolag‘a san’ati qo‘llanilib, hatto Rustam va Bahrom ham uning oldida «qul» va «chokar» (xizmatkor) ekanligi ta’kidlanadi.

Istiora va tashbeh:

Xilofat burjida tobanda xurshid,
Jalodat durjida raxshanda guhar.

Shahzoda – xilofat osmonidagi quyoshga (*xurshid*) va jasorat qutisidagi gavharga (*guhar*) qiyoslanadi. Bu – tashbehi sarih (ochiq o‘xshatish)dir.

Tazod (zidlantirish) – shoir islom va kufr tushunchalarini qarama-qarshi qo‘yish orqali mafkuraviy fon yaratadi: «Borib Mashhad diyorin qildi toroj, Solib kufr ahli ichra sho‘ri mahshar.» Bu o‘rinda *kufr ahli* deganda, o‘sha davrdagi siyosiy-diniy ziddiyatlar nuqtayi nazaridan shia mazhabidagi eroniylar (qizilboshlar) nazarda tutilgan. Munis bu yurishni shunchaki bosqinchilik emas, balki diniy g‘azot sifatida talqin qiladi.

Sharq mumtoz adabiyoti va tarixnavisligida muhim voqealar sanasini she’riy misralar yoki so‘z birikmalari tarkibidagi harflarning raqam qiymati (abjad hisobi) orqali ifodalash – ta’rix janri alohida o‘rin tutadi. Bu janr nafaqat sanani qayd etish, balki tarixiy voqeaga badiiy-estetik va siyosiy baho berish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ogahiyning «Riyozu-d-davla» asarida bu janr imkoniyatlaridan g‘oyat samarali foydalanilgan.

Ogahiy tarixiy asarlaridagi ta’rixlar ko‘lami, muallifligi va janr xususiyatlari borasida olib borilgan fundamental tadqiqotlar, xususan, I.Ismoilovning izlanishlari shuni ko‘rsatadiki, muarrix asarlarida jami 52 ta ta’rix mavjud bo‘lib, ular umumiy 974 misrani tashkil etadi. Ushbu raqamlar Ogahiyning tarixiy vo-

[1] Дўстова С. Ҳасанмурод Лаффасийнинг “Тазкираи шуаро” асари ва унинг қиёсий-матний тадқиқи: Филол. фан. фалсафа доктори (PhD) дисс. – Жиззах, 2021. – Б. 76.

qealar bayonida nasr va nazm uyg‘unligini yuksak darajada ta’minlaganidan dalolat beradi.

«Ko‘p qasida va ta’rixlar aytib» iborasi, bu jarayonda faqat Ogahiy emas, balki Komil Xorazmiy, Muhammad Yusuf Rojiy, Dilovariy kabi davrning boshqa zabardast shoirlari ham faol ishtirok etganini anglatadi. Demak, Ogahiy asarlaridagi ta’rixlar yolg‘iz muallifning emas, balki butun boshli Xiva adabiy maktabi vakillarining jamoaviy ijodiy salohiyati mahsuli sifatida shakllangan.

Shunday qilib, saroydagi ushbu rag‘batlantirish tizimi ta’rix (xronogramma) janrining gullab-yashnashiga zamin yaratgan va Ogahiy asarlarining nafaqat tarixiy, balki yuksak badiiy qimmat kasb etishini ta’minlovchi asosiy omillardan biriga aylangan.

Rezyume. Ushbu maqolada «Riyozu-d-davla» asaridagi ta’rix (xronogramma) janrining badiiy-estetik, tarixiy va falsafiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ta’rix janri nafaqat tarixiy sanani abjad hisobi orqali ifodalovchi she’riy shakl, balki muarrixning davr, jamiyat va hokimiyat haqidagi konseptual qarashlarini aks ettiruvchi murakkab sinkretik hodisa sifatida talqin etiladi. Ta’rix janri Ogahiy ijodida tarixiy voqealarni abadiylashtirish, ma’rifat va adolat g‘oyalarini targ‘ib etuvchi badiiy-falsafiy vosita sifatida namoyon bo‘lishi ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Resume. In this article, the artistic-aesthetic, historical, and philosophical features of the genre of ta’rix (chronogram) in the work «Riyazu-d-davla» are analyzed. In the study, the genre of ta’rix is interpreted not only as a poetic form expressing a historical date through abjad calculation, but also as a complex syncretic phenomenon reflecting the historian’s conceptual views on the era, society, and power. It is scientifically substantiated that the genre of history manifests itself in the works of Ogahi as an artistic and philosophical means of perpetuating historical events, promoting the ideas of enlightenment and justice.

Резюме. В данной статье анализируются художественно-эстетические, исторические и философские особенности жанра таърих (хронограмма) в произведении «Риязу-д-давла». В исследовании жанр таърих интерпретируется не только как поэтическая форма, выражающая историческую дату посредством счета абджад, но и как сложное синкретическое явление, отражающее концептуальные взгляды историка на эпоху, общество и власть. Научно обосновано, что жанр таърих проявляется в творчестве Огахи как художественно-философское средство увековечения исторических событий, пропаганды идей просвещения и справедливости.